

XO'JA ABU BAKR SA'D FAOLIYATI

Qorjovov Islom Asliddin o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

+99894-486-22-11

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.11.2025

Revised: 30.11.2025

Accepted: 01.12.2025

Ushbu maqolada Buxoro xonligi tarixida muhim ro'l o'ynagan Jo'ybor shayxi Xo'ja Abu Bakr Sa'd faoliyati, hayoti va mol-mulkiga oid malumotlar bayon etilgan.

KALIT SO'ZLAR:

*Qalmoq, shayx,
sarkor, tegirmon,
ashraf, murid, o'rus,
bakavul, meros, voris.*

Jo'ybor xo'jalari xonadonining nufuzli vakili Xoja Muhammad Islom vafoti oldidan kenja o'g'illari Xo'ja Bohouddin Umar va Xoja Muhammad Kosimlarni o'zidan qolayotgan merosdan mahrum etib, bor mol-mulkini katta o'g'li Xo'ja Abu Bakr Sa'dga vasiyat qilib qoldiradi. Bu vasiyatnoma xon tomonidan tasdiqlanadi. Bunday tadbirdan maqsad, xonadonga tegishli mol-mulklarni o'limidan keyin vorislari o'rtasida talon-taroj bo'lishidan va xonadon obro'yi yo'qolishini oldini olishdan iborat edi. Xo'ja Muhammad Islom shu vaqtgacha erishgan obro'-e'tiborini vafotidan keyin ham saqlab qolishga harakat qiladi⁵⁰. U vafot etganidan so'ng vasiyatga binoan otasidan qolgan merosga Xo'ja Abu Bakr Sa'd egalik qiladi. Xo'ja Abu Bakr Sa'd Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida yuqori mavqeini egallab, otasining faoliyatini davom ettiradi.

⁵⁰ X. Xo'ja Abdurahim Jo'yboriy "Buxoro mavjlari" 2004, N 30 bet.

=====

Xo'ja Muhammad Islom hayotligidayoq o'g'li Xo'ja Abu Bakr Sa'dga hamma imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratib bergan edi. Unga atab hashamatli uy, ma'lum miqdorda tomorqa yerlari, qullar hamda oilasi ta'minoti uchun katta mablag' ham ajratgan edi. Buning ustiga merosiy mulklarning qo'shilishi bilan Xo'ja Abu Bakr Sa'dning boyliklari miqdori yanada oshdi. Chunonchi, Xo'ja Muhammad Islom temuriyzodalarning yirik vakillaridan biri amir Muhammad Tumonning qiziga uylangan edi. 1588-yilda Abdullaxon Hirot shahrini egallaganda xonning ko'rsatmasi bilan Muhammad Tumonning katta miqdordagi mol-mulki nabirasi Xo'ja Abu Bakr Sa'dga beriladi. Bu esa Xo'ja Abu Bakr Sa'dning mol-mulki miqdorini yanada ko'paytirib, nufuzini yanada oshirdi.

Xo'ja Abu Bakr Sa'd ona tomonidan temuriylarning avlodi hisoblanadi. Xo'ja Muhammad Islomning o'g'li va vorisi Xo'ja Abu Bakr Sa'd "2 ming jufti gov (17 ming gektar) sermahsul yer, 2.5 ming qo'y, 1 ming tuya, 1ming yilqi, 12 ta hammom, 10 ta sardoba, 2 ta karvonsaroy egasi hisoblangan"⁵¹. Xo'ja Abu Bakr Sa'd o'ziga qarashli yer mulklaridan yiliga 1.6 million oltin tanga daromad olgan. Shuningdek uning qalmoq, o'ris va hindlardan iborat ming nafar quli ham bo'lgan. Xo'ja Abu Bakr Sa'dning Buxoro, Miyonqol, Samarqand, Turkiston, Axsikent, Nasaf, Hisor, Termiz, Qo'bodiyon, Balx, Badaxshon, Hirot, Murg'ob, Mashxad, Chorjo'y kabi viloyatlarda katta yerliklari bo'lgan. Bundan tashqari, Xo'ja Kalonning har bir shaharda g'alla saqlaydigan omborlari ham bo'lgan. Birgina Buxoro shahrining o'zida shunday omborlardan 4 tasi qurilgan bo'lib, ularning har birida 100 ming kilogramm g'alla saqlangan. "Xo'ja Abu Bakr Sa'dning birgina g'alladan oladigan yillik daromadi 60 ming tonnaga teng bo'lgan.

Xo'jalar o'zlarining yer mulklarini boshqarishga katta e'tibor berganlar. Boshqaruvning o'ziga xos tizimini joriy qilganlar. Katta hududlardagi yer mulklarini boshqarish uchun ko'p sonli va turli lavozimlarni (sarkor, vakil, daftardor, bakovul, dorug'a, mirishkor) joriy qilishgan. Har bir soha bo'yicha mas'ul kishilar tayinlangan ular orqali katta hajmdagi yer mulk xo'jaliklarini boshqarishgan. Xo'ja Abu Bakr Sa'd o'zining katta xo'jaliklarini boshqarishda joylashgan hududlariga qarab, sarkorliklarga bo'lgan edi. Sarkorliklarning har birida maxsus vakillar turar edi. Abdullaxonning Xoja Abu Bakr Sa'dga ixlosi va e'tiqodi kuchliligidan o'zi yashaydigan mahallaning atroflaridan unga obod qishloqlar ajratib berdi. Xo'ja Kalon bu hadyani qabul qilmay, "Ziroatsiz yolg'iz bir yerdan, bir parchagina qabul qildi" xolos. U yerga bir qancha ariqlar qazdirtirib, suv keltirdi va chiroyli bog'larni barpo

⁵¹ Ahmedov B. "Tarixdan saboqlar" T. "o'qituvchi" 1991. 26-bet.

qildi hamda bu bilan o'sha yerlarga jon kiritdi. Xo'ja Abu Bakr Sa'd doimo o'zining katta boyligi hisobidan muhtoj kishilarning hojatlari chiqarishda yordam berib turadi edi. Bundan tashqari, "Jo'ybor shayxlari" asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Xo'ja Abu Bakr Sa'd har kuni mingta non yoqtirib, muxtojlariga va madrasalarda tahsil oluvchi talabalarga tarqatishni buyurardi⁵². Bu tadbirlar Xo'ja Abu Bakr Sa'dning xalqqa bo'lgan ta'sir kuchini yanada oshirar edi.

Xo'ja Abu Bakr Sa'dning turli shaharlarda ko'plab savdo do'konlari, ustaxonalaridan tashqari savdo rastalari, yopiq bozorlari, karvonsaroylari, tegirmon va hammomlaridan ham kattagina daromad tushib, uning boyligi miqdorini oshirar edi. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Xo'ja Abu Bakr Sa'd juda katta yer maydonini o'z ichiga olgan uylar va hovlilarni ham qimmat narxlarida sotib olavergan. Bizningcha bu uy va hovlilar yashash uchun emas balki, shaharlarga savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanishga kelgan savdogarlarga ijaraga berilib, undan ham foyda olish maqsadi ko'zlangan bo'lishi mumkin. Xo'ja Abu Bakr Sa'd obro'sining xonlikda va undan tashqarida bu darajada ko'tarilib ketishining bosh sababi uning Buxoro xonligini shayxulislomi bo'lishigina emas, uning nafaqat saroyda balki keng omma orasida obro'si hamda hadsiz boyliklari hisobiga edi. Abdullaxon II ham Xo'ja Abu Bakr Sa'dni o'zining piri hisoblab, uning so'zidan bir qadam ham chiqmas edi. Otasi Iskandarxon kabi Abdullaxon II ham Xo'ja Abu Bakr Sa'dning muridi edi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Xo'ja Abu Bakr Sa'd o'lim to'shagida yotganida, uch o'g'li va ikkita qizini oldiga chaqiradi. Shu narsa diqqatga sazovorki, uning 18 ming oltini (ashraf)dan 14 mingtasi katta o'g'li Xo'ja Tojiddin Hasanga, 4 mingtasi o'rtancha o'g'li Xo'ja Abduraximga, kichkina o'g'li Xo'ja Abduxo'jaga va ikkita qiziga oltin qolmagani uchun qimmatbaho narsalar beradi⁵³. Bunga o'xshash vaziyat Xo'ja Muhammad Islomda ham bo'lib, u ham butun merosini Xo'ja Abu Bakr Sa'dga topshirib, qolgan ikkita o'g'lini merosdan mahrum qilgan edi.

Xo'ja Abu Bakr Sa'dning bosh merosxo'ri bo'lgan Xo'ja Tojiddin Hasan butun vaqf mulklarining mutavallisi etib tayinlanadi. Abdullaxon Xo'ja Tojiddin Hasanga Abu Bakr Sa'd mozori va u yerdagi Jo'ybor xo'jalarning yer mulklarini uning ixtiyoriga o'tkazilganligini e'lon qiladi. Xo'ja Abu Bakr Sa'd vafotidan keyin Abdullaxon farmoni

⁵² Xofiz Tanish Buxoroy "Abdullanoma" Birinchi kitob. T. 1999. 83-bet.

⁵³ Ahmedov B "O'zbekistonning tarixiy manbalari" T. O'qituvchi 2001, 81-bet.

bilan va shariat qonunlari asosida unga tegishli bo'lgan bor mol-mulk taqsimlanadi. Asosiy merosxo'r va butun vaqf mulklarining mutavallisi sifatida Xo'ja Tojiddin Hasanga otasidan qolgan bor mol-mulkning ikkidan uch qismi, ukasi Xo'ja Abdurahimga esa birdan uch qismi beriladi. Xo'ja Abu Bakr Sa'd o'g'illarning harbiy xizmat qilishlarini vaziyat qiladi. Chunki o'sha davrda mahalliy feodallar o'rtasida tez-tez o'zaro urushlar bo'lib turar edi. Bunda mag'lubiyatga uchragan tomon bor mol-mulklardan ajralib xonavayron bo'lar edi. Fikrimizcha, Xo'ja Abu Bakr Sa'd o'g'illariga harbiy xizmat qilishlarini ta'kidlashidan ko'zlagan bosh maqsadi, umr bo'yi toplagan, ko'paytirgan mol-mulklarining dahlsizligini saqlab qolishdan iborat bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X. Xo'ja Abdurahim Jo'yboriy "Buxoro mavjlari" 2004.
2. Ahmedov B. "Tarixdan saboqlar" T. "o'qituvchi" 1991.
3. Xofiz Tanish Buxoroy "Abdullanoma" Birinchi kitob. T. 1999.
4. Ahmedov B "O'zbekistonning tarixiy manbalari" T. O'qituvchi 2001.